

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**60410100-“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT (QISHLOQ XO‘JALIGIDA)”
TA’LIM YO‘NALISHINI 2025-2026 O‘QUV YILI BITIRUVCHILARI UCHUN
“IXTISOSLIK” FANLARIDAN DAVLAT ATTESTATSIYASI
SAVOLLARI**

SAMARQAND-2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor,
professor  **A.A. Elmurodov**
2025 yil



**60410100-“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT (QISHLOQ XO‘JALIGIDA)”
TA'LIM YO'NALISHINI 2025-2026 O'QUV YILI BITIRUVCHILARI UCHUN
“IXTISOSLIK” FANLARIDAN DAVLAT ATTESTATSIYASI
SAVOLLARI**

SAMARQAND-2025

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI KENGASHINING
№ 4 YIG'ILISHI BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA**

27.11.2025-yil

Samarqand shahri

Qatnashganlar: Kengash a'zosi 19 kishi
A'zolaridan tashqari 2 kishi

KUN TARTIBI

5.1. Har xil masalalar.

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 4-bosqich bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollarini tasdiqlash.

Eshitildi: Kun tartibidagi har xil masalalar yuzasidan Kengash raisi A.Alikulov so'zga chiqib, 2025-2026-o'quv yilida fakultetning bitiruvchi kurs talabarlari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan o'tkaziladigan Davlat attestatsiyasini yuqori saviyada o'tkazish uchun mutaxassislik fanlaridan har bir ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan 300 tadan savollarni tekshirib tasdiqlab berishlarini kengash a'zolaridan so'radi.

U.Eshmuradov: Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasini mudiri - Ixtisoslik fanlaridan savollar yuqori saviyada tuzilgan va bitiruvchi bosqich talabalarining 4 yil davomida o'qigan fanlarini to'liq qamrab olgan, xususan Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida bitiruvchi kurslarga 9 ta fan o'qitiladi, xar bir fan bo'yicha savollar berilgan bo'lib har bitta savol ustida mutaxassislar alohida ish olib borishgan.

N.Rajabov: Iqtisodiyot va menejment kafedrasini mudiri - Iqtisodiyot va menejment kafedrasida bitiruvchi kurslarga 7 ta fan o'qitiladi, xususan, “Ixtisoslik” fanlaridan savollar yuqori saviyada tuzilgan va bitiruvchi bosqich talabalarining 4 yil davomida o'qigan fanlarini to'liq qamrab olgan hamda xar bir fan bo'yicha savollar berilgan bo'lib har bitta savol ustida mutaxassislar alohida ish olib borishgan.

60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi o'tkazish uchun tuzilgan savollarning barchasi ixtisoslik fanlarini qamrab olganligini inobatga olgan holda kengash a'zolaridan tasdiqlashini so'radi.

Ushbu masala yuzasidan Kengashda qaror qabul qilindi.


QAROR:

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 4-bosqich bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi o'tkazish uchun tuzilgan savollarini tasdiqlash uchun universitet Kengashidan so'ralsin.

Qaror bir ovozdan ma'qullandi.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.I.Alikulov

Sh.Yuldashev

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI O'QUV-USLUBIY KENGASHINING
№ 3 YIG'ILISHI BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA**

26.11.2025-yil

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Uslubiy kengash raisi
I.Salamov va 8 nafar a'zolari

KUN TARTIBI

2.1. Har xil masalalar.

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 2025-2026 o'quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollarini tasdiqlash to'g'risida.

Davlat attestatsiyasi savollari bilan o'quv-uslubiy kengash a'zolari batafsil tanishib chiqishdi.

Muhokama uchun so'zga chiqdilar: Uslubiy kengash a'zosi iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o'qituvchi – R.Kudratov: Hurmatli o'quv-uslubiy kengash a'zolari, 2025-2026 o'quv yilida bitiruvchi kurs talabalari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan o'tkaziladigan Davlat attestatsiyasi uchun mutaxassislik fanlaridan tuzilgan 300 ta savollar fan dasturlaridagi mavzular mohiyatini qamrab olgan, hozirgi kundagi iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosatini, me'yoriy hujjatlardagi yangiliklarini o'zida aks ettirgan. Shuning ushbu savollarga javob berish uchun bitiruvchilardan ham nazariy, ham amaliy bilimlarga ega bo'lishini talab qiladi. Tuzilgan savollar fanlar o'rtasida ular uchun o'quv rejada ajratilgan soatlarga mos ravishda tuzib chiqilgan. Savollar to'g'ri tuzilganligini inobatga olib ma'qullayman va sizlarni ham uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

So'zga chiqdi: Uslubiy kengash a'zosi, i.f.d., professor A.I.Alikulov – “Ixtisoslik” fanlaridan savollar yuqori saviyada tuzilgan va bitiruvchi bosqich talabalarining 4 yil davomida o'qigan fanlarini to'liq qamrab olgan hamda talabalarimiz tomonidan to'liq o'zlashtirilgan.

O'quv-uslubiy kengash qaror qiladi:

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 2025-2026 o'quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi o'tkazish uchun tuzilgan savollarni tasdiqlash uchun universitet Markaziy o'quv-uslubiy kengashiga taqdim etilsin.

O'quv-uslubiy kengash raisi, dotsent

Kengash kotibi



I.Salamov

Sh.Yuldashev

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnoogiyalar universiteti 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishining 2025-2026 o‘quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollari

№	O‘quv rejadagi fanlar nomi	Savollar
1.13	Buxgalteriya hisobi nazariyasi	1-35
1.17	Moliyaviy hisob	36-82
1.18	Boshqaruv hisobi	83-106
1.19	Soliqlar va soliqqa tortish	107-136
1.21	Moliyaviy hisobot	137-162
1.24	Moliyaviy va boshqaruv tahlili	163-198
1.28	Professional buxgalteriya hisobi amaliyoti	199-236
1.29	Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi	237-254
1.30	Amaliy audit	255-300

Tuzuvchilar:

1. Alikulov A.I. – i.f.d., professor.
2. Eshmuradov U.T. – i.f.f.d. (PhD).
3. Rahimov S.A. – i.f.f.d. (PhD).
4. Yuldashev Sh.X. – assistent.
5. Tuxtayev Z.M. – assistent.
6. Ishturdiyev X. – assistent.
7. Fayzullayev M.N. – assistent.



Taqrizchilar:

S.N.Tashnazarov – Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Buxgalteriya hisobi” kafedrasini mudiri, i.f.d., professor.

A.I.Alikulov – “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini professori, i.f.d.

“Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollari “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2025-yil 25-noyabrdagi 4-son yigilishida muhokama qilingan va ma’qullangan.

Buxgalteriya hisobi va audit
kafedrasini mudiri, i.f.f.d. (PhD)



U.T.Eshmuradov

“Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollari “Iqtisodiyot” fakultetining 2025-yil 27-noyabrdagi 4-son yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Iqtisodiyot fakulteti dekani, professor



A.I.Alikulov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun tayyorlangan savollarga

T A Q R I Z

Mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ish beruvchi korxonada va tashkilotlarni ta‘lim jarayoniga jalb etish hamda oliy va kasbiy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-son qarori bilan “Oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” qabul qilinib, attestatsiya oliy ta‘lim tashkilotidagi har bir bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tashkil etiladigan komissiya tomonidan ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqib, oliy ta‘lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) o‘tkazilishi belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, ta‘lim yo‘nalishi va mutaxassislik bo‘yicha majburiy fanlardan attestatsiya fanlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda, malaka talablarida nazarda tutilgan bilim, ko‘nikma va malaka darajasini aniqlashga yo‘naltiriladi. Ta‘lim yo‘nalishi va mutaxassislikka mos maxsus (majburiy) fanlar ro‘yxatini oliy ta‘lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e‘lon qiladi. Attestatsiyani oliy ta‘lim tashkilotidagi har bir ta‘lim yo‘nalishi va mutaxassislik bo‘yicha o‘tkazadi. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko‘nikma va malakasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi va e‘lon qilinadi.

60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishiga yakuniy davlat attestatsiyasi savollari malaka talablari va o‘quv rejaga asosan majburiy fanlar blokidagi “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, “Moliyaviy hisob”, “Boshqaruv hisobi”, “Soliqlar va soliqqa tortish”, “Moliyaviy hisobot”, “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”, “Professional buxgalteriya hisobi amaliyoti”, “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi”, “Amaliy audit” fanlaridan tuzilgan.

Mazkur fanlardan tuzilgan attestatsiya savollari mohiyati, mazmuni fan dasturiga mos keladi, bitiruvchi talabalarda moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi, soliqlar va soliqqa tortish, amaliy audit, moliyaviy va boshqaruv tahlili bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Umuman olganda, 60410100 – “Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi sirtqi ta‘lim bitiruvchilari uchun tayyorlangan “Ixtisoslik” fanlaridan attestatsiya savollari ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha majburiy fanlardan attestatsiya fanlar mazmuniga qo‘yiladigan talablarga javob beradi deb hisoblayman va yakuniy davlat attestatsiyasida foydalanishga (qo‘llashga) tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Buxgalteriya hisobi kafedrasini mudiri,
professor



S.N.Tashnazarov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishini bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun tayyorlangan savollarga

T A Q R I Z

Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta‘lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgandan keyin davlat attestatsiyasidan o‘tishlari majburiydir. Yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko‘nikma va malaka darajasini baholash jarayoni hisoblanadi.

“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga asosan majburiy fanlar blokidagi ixtisoslik fanlari sifatida “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, “Moliyaviy hisob”, “Boshqaruv hisobi”, “Soliqlar va soliqqa tortish”, “Moliyaviy hisobot”, “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”, “Professional buxgalteriya hisobi amaliyoti”, “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi”, “Amaliy audit” fanlari tanlab olinib, ushbu fanlar mutaxassislikni shakllantiruvchi fanlar hisoblanadi. Bitiruvchi talabada ushbu fanlar bo‘yicha nazariy hamda amaliy ko‘nikmalarni bo‘lishi, tayyorlanayotgan bakalavrlarni o‘qishni tugatgandan so‘ng, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatish jarayonida bevosita ishga kirishib ketishi va o‘z vazifalarini muvoffaqiyatli bajarishga omil bo‘ladi. Shuning uchun, davlat yakuniy attestatsiya savollarini malakali tuzish, fanlarning dasturidagi barcha mavzularni qamrab olishi muxim ahamiyatga ega.

Ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun tayyorlangan savollar fan dasturlaridagi mavzular mohiyatini qamrab olgan, hozirgi kundagi buxgalteriya hisobi va audit bo‘yicha davlat siyosatini, me‘yoriy hujjatlardagi yangiliklarini o‘zida aks ettirgan. Shuning ushbu savollarga javob berish uchun bitiruvchilardan ham nazariy, ham amaliy bilimlarga ega bo‘lishini talab qiladi. Tuzilgan savollar fanlar o‘rtasida ular uchun o‘quv rejada ajratilgan soatlarga mos ravishda tuzib chiqilgan.

Umuman olganda, ushbu tuzilgan savollar asosida 60410100 – “Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi sirtqi ta‘lim bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazishda foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot fakulteti dekani, professor, I.f.d.**



(Handwritten signature)

A.I. Alikulov

(Handwritten signature)

60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta’lim yo‘nalishining 2025-2026 o‘quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollari

Buxgalteriya hisobi nazariyasi

1. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi va uning asosiy elementlari
2. Buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish vazifalari, prinsiplari, tizimi va uning asosiy elementlari
3. Hisob siyosati, uni shakllantirish tartibi, bosqichlari va prinsiplari
4. Xo‘jalik hisobining mohiyati va boshqaruv tizimidagi ahamiyati
5. Buxgalteriya hisobining predmeti, obyektlari va metodining elementlari
6. Buxgalteriya hisobining boshqa hisob turlaridan farqli xususiyatlari
7. Buxgalteriya balansi mohiyati, ahamiyati, tuzilishi va xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar
8. Buxgalteriya hisobining schyotlari va ikkiyoqlama yozuv
9. Buxgalteriya hisobi schyotlarining turkumlanishi va schyotlar rejasi
10. Buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi
11. Hujjatlashtirish – buxgalteriya hisobi metodining elementlaridan biri
12. Elektron hujjat, elektron raqamli imzo. Elektron hujjat aylanishi
13. Inventarizatsiya – buxgalteriya hisobi metodining elementlaridan biri.
14. Kalkulyatsiya – buxgalteriya hisobi metodining elementlaridan biri.
15. Baholash – buxgalteriya hisobi metodining elementlaridan biri
16. Balansning ayrim moddalarini (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog‘ozlar, zaxiralar va boshqalar) baholash metodlari
17. Ikkiyoqlama yozuv – buxgalteriya hisobi metodining elementlaridan biri
18. Buxgalteriya schyotlari – buxgalteriya hisobi metodining elementlaridan biri
19. Aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish
20. Aktivlarni inventarizatsiya qilish, natijalarini rasmiylashtirish, hisob va hisobotda aks ettirish
21. Majburiyatlarni inventarizatsiya qilish, natijalarini rasmiylashtirish, hisob va hisobotda aks ettirish
22. Buxgalteriya hisobida aktivlar va majburiyatlarni baholash
23. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiyalash
24. Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkultsiyalash
25. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish metodologiyasi
26. Buxgalteriya hisobining registrlari
27. Buxgalteriya hisobining shakllari, afzalliklari va kamchiliklari
28. Hisob registrlaridagi xatolarni aniqlash va ularni tuzatish usullari
29. Buxgalteriya hisobining asosiy shakllari va ularni yurtish prinsiplari
30. Korxonada moliyaviy hisobot shakllarini tuzish va taqdim etish
31. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot: mazmuni, ahamiyati va uning axborotidan foydalanuvchilar
32. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiq isloh qilish
33. Ta’minot jarayoni va uni hisobga olish
34. Ishlab chiqarish jarayoni va uni hisobga olish
35. Sotish (realizatsiya) jarayoni va uni hisobga olish

Moliyaviy hisob

36. Kassa operatsiyalari hisobi va uni takomillashtirish
37. Hisob-kitob operatsiyalari hisobi va uni takomillashtirish
38. Bank muassasalaridagi pul mablag'lari bo'yicha hisob-kitob va valyuta schyotlarning hisobini tashkil qilish
39. Asosiy vositalar hisobi va uni takomillashtirish
40. Asosiy vositalar amortizatsiyasining hisobi va uni takomillashtirish
41. Asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish va uning natijalarini hisobda aks ettirish tartibi
42. Asosiy vositalarni qurish va ta'mirlash hisobini takomillashtirish
43. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish hisobi va uni takomillashtirish
44. Nomoddiy aktivlar hisobi va uni takomillashtirish
45. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining hisobi va uni takomillashtirish
46. Investitsiyalar hisobi va uni takomillashtirish
47. Kapital qo'yilmalar hisobi va uni takomillashtirish
48. Materiallar hisobi va uni takomillashtirish
49. O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi va uni takomillashtirish
50. Tayyor mahsulotlar hisobi va uni takomillashtirish
51. Tovarlar hisobi va uni takomillashtirish
52. Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasini tashkil etish va uning natijalarini hisobda aks ettirish
53. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va uni takomillashtirish
54. Ijara hisobi va uni takomillashtirish
55. Operativ ijara hisobi va uni takomillashtirish
56. Moliyaviy (lizing) ijara hisobi va uni takomillashtirish
57. Pul mablag'lari hisobi va uni takomillashtirish
58. Mehnat va unga haq to'lashning hisobi va uni takomillashtirish
59. Majburiyatlar hisobi va uni takomillashtirish
60. Kreditlar va qarzlar hisobi va ularni takomillashtirish
61. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobini takomillashtirish
62. Mahsulot, tovar (ish, xizmat) lar va ularni sotish hisobini takomillashtirish
63. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobi va uni takomillashtirish
64. Xususiy kapital hisobi va uni takomillashtirish
65. Maqsadli tushumlar hisobi va uni takomillashtirish
66. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va uni takomillashtirish
67. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va uni takomillashtirish
68. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va uni takomillashtirish
69. Davr xarajatlari hisobi va uni takomillashtirish
70. Daromadlar va xarajatlar hisobini takomillashtirish
71. Moliyaviy faoliyat daromadlari hisobi va uni takomillashtirish
72. Moliyaviy faoliyat xarajatlari hisobi va uni takomillashtirish
73. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish
74. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida asosiy vositalar hisobini tashkil etish amaliyoti

75. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish amaliyoti

76. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish amaliyoti

77. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida pul mablag'lari hisobini tashkil etish amaliyoti

78. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida xususiy kapital hisobini tashkil etish amaliyoti

79. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida xarajatlar hisobini tashkil etish amaliyoti

80. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida ijara hisobini tashkil etish amaliyoti

81. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida moliyaviy qo'yilmalar hisobini tashkil etish amaliyoti

82. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish amaliyoti

Boshqaruv hisobi

83. Boshqaruv hisobi funksiyalari, tamoyillari, hisob tizimi va tarkibiy qismlari

84. Boshqaruv va moliyaviy hisobning farqli jihatlari

85. Boshqaruv hisobida biznes jarayonlarining ahamiyati va hisob ko'rsatkichlari

86. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish

87. Boshqaruv hisobida moddiy xarajatlarning tavsifi va ularning hisobini yuritish

88. Boshqaruv hisobida mehnat xarajatlari, mehnatga haq to'lash shakllari va mehnat xarajatlarini hisoblash

89. Boshqaruv hisobida mahsulotlar tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish

90. Boshqaruv hisobida mahsulot tannarxi va uning mohiyati

91. Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati

92. Boshqaruv hisobida mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish amaliyoti

93. Buyurtmali usul bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash

94. Jarayonli usul bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash

95. Me'yoriy (normativ) usul bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash

96. Zamonaviy "Standart-kost" tizimi asosida xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash

97. Zamonaviy "Direkt-kosting" tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash

98. Ilg'or boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish jarayoni

99. Xo'jalik subyektida investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish

100. Xo'jalik subyektida biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish

101. Xo'jalik subyektida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va rejalashtirish

102. Xo'jalik subyekti faoliyatini rejalashtirishda byudjetlashtirish

103. Xo'jalik subyekti ishlab chiqarish faoliyatida byudjet va uni tuzish tartibi

104. Boshqaruv hisobida transfert baho va uni belgilash

105. Boshqaruv hisobida segmentar hisobot

106. Ilg'or boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosati va uni shakllantirish

Soliqlar va soliqqa tortish

107. O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortish tizimining normativ-huquqiy asoslari

108. Soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati, zarurligi, prinsiplari.

109. O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish tizimi

110. Soliq munosabatlarining subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari

111. Soliq hisobi va soliq hisobotlari

112. Soliq majburiyatini bajarish, qoliq nazorati va soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik

113. Qo'shilgan qiymat solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

114. Aksiz solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

115. Foyda solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

116. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

117. Jismoniy shaxslarning jami daromadi va uning tarkibi.

118. Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar

119. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

120. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

121. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

122. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

123. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

124. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

125. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

126. Aylanmadan olinadigan soliqning umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

127. Ijtimoiy soliqning umumiy tavsifi va hisobda aks ettrish tartibi

128. Yig'implar va ularni to'lash tartibi

129. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

130. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

131. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar

132. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk soliining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati

133. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

134. Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

135. Kameral soliq tekshiruvi mohiyati va ahamiyati

136. Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti

Moliyaviy hisobot

137. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish

138. Moliyaviy hisobotning mohiyati, unsurlari va uni tayyorlash tamoyillari

139. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan moliyaviy hisobotlar tarkibi va tuzilishi

140. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos

141. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularning axborotga bo'lgan extiyoji

142. Hisob siyosatining uslubiy jihatida buxgalteriya hisobotini tuzish uchun zarur ma'lumotlarning shakllantirilishi

143. Moliyaviy hisobotni tuzishdan oldin amalga oshiriladigan hisob ishlari.

144. Buxgalteriya balansi hisobot shakli va uni tuzish hamda taqdim etish tartibi

145. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mohiyati, uni tuzish va taqdim etish tartibi

146. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromad, xarajat, foyda va zararlarni kiritish usullari

147. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalarni shakllantirish qoidalari

148. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning mohiyati, uni tuzish va taqdim etish tartibi

149. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida yoritish

150. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning mohiyati, uni tuzish va taqdim etish tartibi

151. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarida izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish

152. Moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar va ularni taqdim etish

153. Moliyaviy hisobotga izohlar maqsadi va unda aks ettiriladigan holatlar

154. Moliyaviy hisobotga hisob-kitoblarning maqsadi va unda aks ettiriladigan holatlar

155. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlarning maqsadi va unda aks ettiriladigan holatlar.

156. Moliyaviy hisobotga auditorlik xulosasi

157. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot mohiyati, ahamiyati va uni tuzish tamoyillari

158. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish oldidan amalga oshiriladigan hisob ishlari

159. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish
160. Buxgalteriya schyotlarini yopish tartibi
161. Xo'jalik subyekting segmentar hisobot va uni tayyorlash tartibi
162. Moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish

Moliyaviy va boshqaruv tahlili

163. Moliyaviy tahlilning mohiyati, ahamiyati va tamoyillari.
164. Qishloq xo'jaligik korxonalarini faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish, natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.
165. Kompleks iqtisodiy tahlil, ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlari va omillari.
166. Qishloq xo'jaligida moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili
167. Qishloq xo'jaligida yer-suv resurslari va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili
168. Qishloq xo'jaligida moliyaviy natijalarni shakllantirish va uning ko'rsatkichlarining tahlili.
169. Qishloq xo'jaligida rentabellik ko'rsatkichlari va ularning tahlili.
170. Qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish darajasi tahlilining ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari.
171. Qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotlari va ularni sotish hajmining tahlili
172. Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish darajasi va uning mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili
173. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish darajasi va uning mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili
174. Qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish samaradorligi darajasining tahlili.
175. Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat unumdorligi va uning omilli tahlili
176. Qoramolchilikda mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasining omilli tahlili
177. Qishloq xo'jaligi korxonalarining operatsion faoliyatining tahlili
178. Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy barqarorligining tahlili .
179. Chorvachilik mahsulotlari va ularni sotishdan olingan sof pul tushumi tahlili
180. O'simlikchilik mahsulotlari va ularni sotishdan olingan sof pul tushumi tahlili
181. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining tahlili
182. O'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining tahlili
183. O'simlikchilik tarmog'ida paxtachilik-g'allachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining omilli tahlili
184. Chorvachilik tarmog'ida qoramolchilik, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining omilli tahlili

185. Qishloq xo'jaligida mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foyda va uning omilli tahlili

186. Qishloq xo'jaligida sotilgan mahsulotlar rentabelligi va uning omilli tahlili

187. Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy holati va uning tahlili

188. Qishloq xo'jaligi korxonalarida xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili

189. Qishloq xo'jaligi korxonalarini to'lov qobiliyatining tahlili

190. Qishloq xo'jaligi korxonalarida pul oqimlarining tahlili

191. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili

192. Qishloq xo'jaligi korxonalarini buxgalteriya balansining tahlilini tashkil etish

193. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy barqarorlik tahlili

194. Qishloq xo'jaligi korxonalarida kreditga layoqatlilik tahlili

195. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili

196. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish

197. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish

198. Moliyaviy tahlilda investitsion va tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili

Professional buxgalteriya hisobi amaliyoti

199. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy dasturlari

200. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobini avtomatlashtirish

201. Mehnatga haq to'lash va ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobini avtomatlashtirish

202. Uzoq muddatli aktivlar hisobini avtomatlashtirish

203. Aylanma aktivlar hisobini avtomatlashtirish

204. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqarish va muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar

205. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: zaruriyat, muammolar, rivojlanish istiqbollari

206. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" nomli 1-son MHXS standartining maqsadi va qo'llanish sohasi

207. "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar" nomli 15-son MHXS ning mohiyati va qo'llanilish sohasi

208. O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilishning konseptual asoslari" nomli 0-son BHMSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

209. O'zbekiston Respublikasi "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

210. O'zbekiston Respublikasi "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" nomli 2-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

211. O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" nomli 3-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

212. O'zbekiston Respublikasi "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

213. O'zbekiston Respublikasi "Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

214. O'zbekiston Respublikasi "Ijara hisobi" nomli 6-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi.

215. O'zbekiston Respublikasi "Nomoddiy aktivlar" nomli 7-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

216. O'zbekiston Respublikasi "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" nomli 9-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

217. O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish" nomli 12-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

218. O'zbekiston Respublikasi "Xususiy kapital to'g'risida hisobot" nomli 14-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

219. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya balansi" nomli 15-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

220. O'zbekiston Respublikasi "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

221. O'zbekiston Respublikasi "Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi" nomli 20-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

222. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" nomli 21-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi

223. O'zbekiston Respublikasi "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi" nomli 22-son BHMS mazmuni va amal qilish sohasi.

224. O'zbekiston Respublikasi "Qarzlarni bo'yicha xarajatlar hisobi" nomli 24-son BHMSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

225. "Zaxiralar" nomli 2-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

226. "Pul mablag'larining harakati to'g'risida hisobot" nomli 7-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

227. "Hisob siyosatlarini, buxgalteriya hisobi-kitoblari baholashlaridagi o'zgarishlar va xatolar" nomli 8-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi.

228. "Hisobot davridan keyingi hodisalar" nomli 10-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

229. "Foyda solig'i hisobi" nomli 12-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

230. "Asosiy vositalar" nomli 16-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

231. "Ijara" nomli 17-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

232. "Tushumlar" nomli 18-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

233. "Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni ochiqlash va taqdim qilish" nomli 32-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

234. "Aktivlarning qadrsizlanishi" nomli 36-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

235. "Nomoddiy aktivlar" nomli 38-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

236. "Qishloq xo'jaligi" nomli 41-son BHXSning mazmuni va qo'llanilish sohasi

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi

237. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari

238. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobining xususiyatlari

239. Qurilish tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobining xususiyatlari
240. Qurilish tashkilotlarida xarajatlar hisobi va qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilishning xususiyatlari
241. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash hisobining xususiyatlari
242. Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobining xususiyatlari
243. Qurilish tashkilotlarida soliqlar va yig'imlar hisobining xususiyatlari
244. Avtotransport tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari
245. Avtotransport tashkilotlarida transport vositalari va ular ish faoliyati hisobining xususiyatlari
246. Avtotransport tashkilotlarida xarajatlar hisobi va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish xususiyatlari
247. Avtotransport tashkilotlarida mehnatga haq to'lash hisobining xususiyatlari
248. Avtotransport tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobining xususiyatlari
249. Savdo tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari
250. Savdo tashkilotlarida tovar operatsiyalari hisobining xususiyatlari
251. Savdo tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobining xususiyatlari
252. Umumiy ovqatlanish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari
253. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari
254. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobot va uni tuzish xususiyatlari

Amaliy audit

255. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi va unda auditning tutgan o'rni
256. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari
257. Audit va auditorlik faoliyatini tashkil etish
258. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida" Qonun va uning ahamiyati
259. Joriy aktivlar (tovar-moddiy zahiralar, pul mablag'lari) audit xususiyatlari va undagi audit amallari
260. Uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar) audit xususiyatlari va undagi audit amallari
261. Asosiy vositalar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish.
262. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va hisobda to'g'ri aks ettirilishining audit
263. Nomoddiy aktivlar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish.
264. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va hisobda to'g'ri aks ettirilishining audit
265. Kapital qo'yilmalar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish.
266. Moliyaviy investitsiyalar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
267. Pul mablag'lari auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish.
268. Tovar-moddiy zaxiralar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
269. Materiallar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
270. Majburiyatlar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish

271. Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
272. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
273. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
274. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
275. Byudjet bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
276. Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
277. Bank kreditlari bo'yicha hisob-kitoblar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
278. Xususiy kapital auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
279. Ishlab chiqarish xarajatlari auditining xususiyatlari va undagi audit amallari
280. Daromadlar va xarajatlar auditining maqsadi, tashkil etish va o'tkazish ketma-ketligi
281. Eksport-import va valyuta operatsiyalari auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
282. Moliyaviy natijalar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
283. Davr xarajatlarini auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
284. Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar va daromadlar auditini tashkil etish va natijalarini aks ettirish
285. Auditorlik riski va auditorlik dalillar
286. Auditorlik professional etikasi va auditorning huquqiy javobgarligi
287. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini litsenziyalash va sertifikatlash tizimi
288. Auditni rejalashtirishning asoslari va audit tekshiruvi texnologiyasi
289. Audit tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash
290. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi
291. Auditda muhimlik tushunchasi va auditorlik riski
292. Auditorlik tekshiruvi vaqtida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash
293. Ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish
294. Auditorlik kasbiga malakaviy talablar
295. Auditlik xulosa va takliflarining xalqaro standartlari
296. Xalqaro audit amaliyoti yuzasidan yo'riqnomalar
297. Buxgalteriya balansi auditi va unda tahliliy amallarni qo'llash tartibi
298. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditi mohiyati, uni o'tkazish tartibi va unda qo'llaniladigan auditorlik amallari
299. Pul oqimlari to'g'risida hisobot auditi mohiyati, uni o'tkazish tartibi va unda qo'llaniladigan auditorlik amallari
300. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot auditi mohiyati, uni o'tkazish tartibi va unda qo'llaniladigan auditorlik amallari.